

## YANGI KONSTITUTSIYADAGI ÒZGARISHLAR VA YANGICHA TIZIMLAR

**Ismoilova Nigora Mirzoaliyevna**

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada jamiyat va davlat hayotini yangi bosqichga ko'tarishda Konstitutsiyaning roli, shuningdek, mazkur jarayonda mahalliy hokimiyat organlarining o'rni Konstitutsiya moddalari asosida tushuntirilgan.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, jamiyat, davlat, fuqaro, 21-bob, mahalliy hokimiyat, 99-modda, 101-modda.

**KIRISH:** Keyingi 6 yil ichida jamiyatimiz hayotida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekiston jahon hamjamiyatiga ochildi, jahon hamjamiyati esa o'zi uchun O'zbekistonni kashf etmoqda. Mamlakat rahbariyati belgilagan sur'atlar hayratlanarli. Jamiyatimizning barcha jabhalarida iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy va madaniy hayotida tub islohotlar boshlanib ketdi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi muhim voqea, bo'lajak referendum arafasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangilash zarurligi haqida fikr yuritish o'rinlidir.

Konstitutsiya har qanday davlatning asosiy qonunidir. U jamiyat uchun ishlashi, uning talab va ehtiyojlarini qondirishi kerak. Konstitutsiyaning mazmuni mamlakatning davlat, ijtimoiy va siyosiy hayotining barcha asoslarini belgilashdan iborat. Boshqacha aytganda, u huquq tizimining asosi va poydevori bo'lib, boshqa barcha qonunlar uning asosida quriladi. Lekin, shu bilan birga, Konstitutsiya qat'iy, o'zgarmas hujjat emas. Agar Konstitutsiyani o'zgartirish zarurati paydo bo'layotgan bo'lsa, demak, bu jamiyatning evolyutsion rivojlanishiga asoslangan holda, O'zbekistonda yaqin kelajakda bo'lgan maqsadlarimizni belgilab olish, ochiq va ishonchli davlat qurish uchun hayotiy zaruratdan dalolat beradi. Bugun biz dunyoda keskinlik kuzatilayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz, buning natijasida geosiyosiy vaziyat yanada murakkablashdi, bu tahdidlarning kuchayishiga olib keldi, bularning barchasi O'zbekiston davlatchiligini yanada mustahkamlashini taqozo etmoqda. Konstitutsiya davlatchilikning o'zagi va mazmuni ekanini inobatga olib, uni mustahkamlashimiz kerak. Dunyodagi mavjud tahdidlar va vaziyatni sinchiklab tahlil qilib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan, davlat birligimizni mustahkamlash, fuqarolarda g'amxo'rlik ko'rsatishga qaratilgan islohotlarni naqadar muhim ekanini ichki auditoriyamizga yetkazish zarur. Mamlakatning alohida tarkibiy qismlarini qayta ko'rib chiqish, ayniqsa konstitutsiyaviy islohotlar haqida gap ketganda.

**MUHOKAMALAR VA NATIJALAR:** Qonunchiligimizga ko'ra, konstitutsiyani qabul qilish bo'yicha referendum o'tkazilgandan keyin hech qanday qo'shimcha hujjat qabul qilish, parlamentda muhokama qilinishi va prezident tomonidan imzolanishi shart emas, chunki umumxalq ovozi yakuniy qarorni belgilab beradi. Mamlakatimizda yangilanayotgan Konstitutsiya bevosita xalq tomonidan qabul qilinadigan birinchi

huquqiy hujjat bo'ladi. Referendumdagi har bir ovoz katta ahamiyatga ega va yuridik kuchga ega bo'ladi. Afsuski, korrupsiya, monopoliya, mas'uliyatsizlik, layoqatsizlik, mahalladoshlik, beparvolik kabi illatlar xalqimiz farovonligiga, butun davlatning barqaror rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganini bugun ochiq tan olamiz.

Konstitutsiyamizni esa bugun o'zgartirmasak, uni zamon talablariga javob beradigan me'yorlarga moslashtirmasak, jamiyatimizni zanglagan "zangi"dan qutula olmaymiz, bundan tashqari, raqobatbardosh, zamonaviy, eng ilg'or davlat bo'lishimiz uchun ko'p yillar kerak bo'ladi.

Belgilangan maqsad — raqobatbardosh, zamonaviy, eng ilg'or davlatga aylanish, bu afsona emas, bu haqiqatga intilishimiz kerak. Biz qurayotgan jamiyatda inson omili muhim o'rin tutadi, bu esa inson manfaatlarining ustuvorligiga asoslanadi.

Yangilangan Konstitutsiya "inson-jamiyat-davlat" tamoyiliga asoslanadi, chunki unda barcha toifalar — yoshlar, ayollar, nogironlar, o'qituvchilar va hatto jinoyatchilar (adashgan fuqarolar)ning huquq va manfaatlari o'z ifodasini topgani bilan amaliy ahamiyatga ega.

Biz o'zimizning, xalqimiz Konstitutsiyasini qabul qilish arafasida turibmiz, bu haqda mamlakatimiz fuqarolari "bu mening Konstitutsiyam" deb ayta oladilar, bu jamiyatimizga juda zarur.

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi huquqiy tizimimizda ijobiy yangilanishlar, fuqarolarga ko'pdan ko'p yengilliklar va ularning huquqlarini izchil himoya qiladigan shu jumladan bir necha yillardan buyon dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelayotgan shaxsning intellektual huquqiy daxlsizligini ta'minlaydi (Yangilan Konstitutsiyaning 31-moddasi). Bugungi yangilanayotgan O'zbekistonda bu moddaning konstitutsiya kiritilishi insonlarning yashash erkinligining kafolatlaridan biri desak adashmagan bo'lamiz. Taniqli fizik olim Albert Eynshteyn "Konstitutsiyaning kuchi butunlay har bir fuqaroning uni himoya qilishga qat'iyat bilan intilishidadir. Konstitutsiyaviy huquqlar har bir fuqaro ushbu himoyaga hissa qo'shishni o'z burchi deb bilsagina himoya qilinadi" <sup>2</sup>, deb Konstitutsiya kuchi haqida o'z fikrlarini bildirgan. Amerikalik huquqshunos, AQSh Oliy sudining uzoq yillar a'zosi bo'lgan Oliver Vendell Xolms "Konstitutsiyalar nazariyalarni qo'llab-quvvatlash uchun emas, balki amaliy va moddiy huquqlarni saqlash uchun mo'ljallangan, deb ta'kidlaydi. Amerikalik huquqshunos va siyosatchi Edvard Mur Kennedi esa "Konstitutsiya nafaqat biz bilan hamohang bo'lgan qarashlarni himoya qiladi, u shuningdek, biz norozi bo'lgan qarashlarni ham himoya qiladi", deya qiziqarli fikrlarini aytib o'tgan. Akademik, yuridik fanlar doktori, professor A. Saidov "Konstitutsiya muhim siyosiy-huquqiy hujjat sifatida kishilik sivilizatsiyasining yutug'i, umuminsoniy qadriyat va demokratik taraqqiyotning yuridik asosidir", "Konstitutsiya bu dogma emas, u harakat uchun dastur bo'lishi kerak", "Konstitutsiya huquqiy bilimlarning alifbosidir", degan chuqur huquqiy falsafiy fikrlarni bayon etgan holda, mamlakatimiz Konstitutsiyasini o'rganish va bilish, unga rioya qilish va Asosiy qonunimiz bilan faxrlanishni albatta zarur, deb hisoblaydi. Yangilangan Konstitutsiyaning muqaddimasida O'zbekistonning yagona xalqi: inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga

sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda har bir moddaning qabul qilinishida aholi vakillar ma'suliyat bilan ishtirok etishlari kerak ekanligini tushuntirish ishlarni yanada jadallashtirish kerak ekanligini aytib o'tmoqchimiz.

Xalqimizda "Kengashli to'y tarqamas" degan g'oyat ibratli bir maqol bor. Ijtimoiy hayotimizning qaysi bir jihatiga e'tibor qaratmaylik, mana shu hikmatga amal qilinishini kuzatishimiz mumkin. Qaysi bir joyda ibratli bir ish bo'lsa, u kengashilgan tadbirning natijasi ekaniga guvoh bo'lamiz. Bu bejiz emas, zotan biz ulug'vor o'tmishimizdan shunday saboq olganmiz. Sohibqiron Temur o'z tuzuklarida shunday ta'lim beradi: "Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur... Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin...

Har kimdan so'z olib kengash so'rar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o'ylab ko'rgach, to'g'ri va savoblirog'ini tanlab olardim". Bu haqda mashhur nemis tarixchisi F.Shlosser ham shunday ma'lumot beradi: "... sarkarda, hokim va qonunchi sifatida buyuk talant egasi edi. Yolg'onni yomon ko'rar, bilimga muhabbat qo'yishdan mahrum emas edi. Uning manzilida shoirlar, olimlar, mashshoqlar va mistiklar (so'filar) ko'p bo'lardi... u odil sudya, ilm-fan do'sti, birga suhbatlashishni xush ko'radigan, rassomlar va olimlarning homiysi edi". Bu fikr to'g'ridan-to'g'ri xalqning xohish-irodasini qonunlarda ifoda etish, bayoni uning tomonidan saylangan vakillar orqali bajarilishi lozimligini bildiradi. Shuning uchun ham "Davlatning yagona manbai xalq" degan qoida barcha zamonlarda o'z dolzarbligini saqlab kelgan.

Jan Jak Russo: "Qonunga itoat etguvchi xalq uning ijodkori ham bo'lmog'i lozim" deydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir", deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, suveren Respublikamiz Konstitutsiyasi – inson va fuqaro huquqlarining demokratik xartiyasi bo'lib, u huquqiy va insonparvar davlatni shakllantirishning strategik dasturi vazifasini o'tab kelmoqda. Konstitutsiya – davlatimiz mustaqilligining huquqiy zamini, xalq xohish irodasining oliy ifodasi sifatida

maydonga chiqdi. U eng taraqqiy topgan, rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalariga tayanish bilan birga, tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan huquqiy hujjat.

Bugun yurtimiz haqida fikr yuritilganda "Yangi O'zbekiston", "Taraqqiyotning yangi bosqichiga kirib borayotgan mamlakat" kabi sharaftaxsh iboralar ishlatilyapti. Bu qo'lga kiritayotgan ulkan muvaffaqiyatlarimizning amaliy samarasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Demak, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil harakatdamiz. Yuksalish esa raqamli iqtisodiyotga o'tish, ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalar bilan boyitish, shu bilan birga o'zligimizni, ma'naviyatimizni, milliy qadriyatlarimizni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan, har bir yurtdoshimiz bugun mamlakatimizda barq urib turgan bebaho ne'mat – tinchlik, totuvlik, barqarorlikning qadriga yetib, Uchinchi Renessans davri poydevoriga g'isht qo'yish, ya'ni yurtimiz taraqqiyotiga munosib xissa qo'shish uchun astoydil harakat qilmog'i lozim.

123-modda: Bu modda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti" mavzusiga bag'ishlangan. Ushbu modda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqlari, vazifalari va faoliyatining asosiy yo'nalishlari aniqlanadi.

Ushbu moddalardagi mavzular O'zbekiston Respublikasi Yangi Konstitutsiyasining muhim vazifalarini, huquq va huquqiy muammolarni, siyosiy, iqtisodiy va madaniy islohatlarni, milliy ta'limni rivojlantirish va kadrlarni tayyorlashni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Maqola bu moddalarning tafsilotli tahlilini beradi va ularning amaliy ahamiyatini o'rganish uchun yordam beradi.

#### Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Yangi Konstitutsiyasining 49-moddasi "Tabiiy muhitingizning saqlanishi va muhofazasi" mavzusiga bag'ishlangan. Ushbu modda orqali O'zbekiston Respublikasi davlatining tabiiy muhiti saqlash maqsadida quyidagi muhim vazifalar tayinlangan:

1. Tabiiy muhitni saqlash va muhofaza qilish: Yangi Konstitutsiyada tabiiy muhitingizni saqlash va muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan kelajakda zarur tadbirlar o'tishadi. Bu tadbirlar orqali tabiiy resurslarni saqlash, ta'qiqlash va tiklash, tabiiy muhitni saqlash, jonli to'lqin va boshqa muhim ekologik muammolarni hal qilishga yo'naltiriladi.

2. Jamiyat tashkilotlarining ishtirok etishi: Yangi Konstitutsiya O'zbekiston jamiyat tashkilotlarining tabiiy muhiti saqlash va muhofaza qilishga ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu tashkilotlar tabiiy resurslarni boshqarish, ekologik tizimni saqlash, tabiiy muhitni saqlash maqsadida faoliyat ko'rsatishadi.

3. Jamiyat a'zolarining qatnashishi: Yangi Konstitutsiya jamiyat a'zolarining tabiiy muhiti saqlash va muhofaza qilishga qatnashishini ta'minlaydi. Jamiyat a'zolarining tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik muammolar bilan bog'liq tushunchalarini oshirish va ularni hal qilishga yo'naltirilgan tadbirlarga qatnashishadi.

4. Davlat organlarining faoliyati: Yangi Konstitutsiya davlat organlarining tabiiy muhiti saqlash va muhofaza qilishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishini

ta'minlaydi. Davlat organlari tabiiy resurslarni boshqarish, ekologik tizimni saqlash, tabiiy muhitni saqlash maqsadida zarur tadbirlarni o'tishadi.

5. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash: Yangi Konstitutsiya tabiiy muhitni saqlash va muhofaza qilish maqsadida ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni o'tishadi. Bu tadbirlar orqali jamiyat a'zolari, tabiiy resurslar va tabiiy muhitni xavfsizligi ta'minlanadi.

Yangi Konstitutsiya 49-moddasi O'zbekiston Respublikasining tabiiy muhitini saqlash va muhofaza qilishni o'z ichiga olgan, bu esa tabiiy resurslarning samarali foydalanish, ekologik tizimni saqlash, ekologik xavfsizlik va jamiyatning sog'lig'i va tinchligini ta'minlashga olib keladi.

Shuningdek, 7-moddada O'zbekiston Respublikasining tabiiy hayotini saqlash, ekologik tizimni saqlash, shuningdek, tabiiy resurslarni samarali foydalanish, ekologik xavfsizlik kabi muhim masalalar keltirilgan.

Jamiyatimizda ekologik muammolar keng tarqalgan, shuning uchun, har bir insonning tabiiy muhitini xavfsiz vaqt ichida saqlovchi va unga ishonchli mehnat ko'rsatish kerak. Konstitutsiya moddalari ham, ekologik muammolar bilan bog'liq va ularga hal qilishga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga olgan.

Ekologik tizimni saqlash maqsadida davlat organlari va jamoat tashkilotlari quyidagi ishlar tashkil etadi:

1. Tabiiy resurslarni boshqarish: Davlat organlari va jamoat tashkilotlari, ekologik tizimni saqlash maqsadida tabiiy resurslarni boshqarishga qaratilgan tadbirlarni o'tishadi. Bu tadbirlar orqali suv, yer va havo resurslarini saqlash, ta'qiqlash va tiklash maqsadlari keltiriladi.

2. Ekologik ta'lim va ko'rsatish: Davlat organlari va jamoat tashkilotlari, ekologik tizimni saqlash maqsadida jamiyat a'zolariga ekologik ta'lim berish va ko'rsatishga qaratilgan tadbirlarni o'tishadi. Bu tadbirlar orqali jamiyat a'zolari ekologik muammolarni tushunish, ularga qarshi chiqish va ularni hal qilishga qaratilgan tadbirlarni o'rganishadi.

3. Qonunchilik mexanizmi tashkil etish: Davlat organlari, ekologik tizimni saqlash maqsadida qonunchilik mexanizmini tashkil etishga qaratilgan tadbirlarni o'tishadi. Bu qonunchilik mexanizmi orqali, ekologik muammolarni tuzish, o'zlashtirish, amalga oshirish va nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

4. Monitoring va nazorat: Davlat organlari va jamoat tashkilotlari, ekologik tizimni saqlash maqsadida monitoring va nazorat qilishga qaratilgan tadbirlarni o'tishadi. Bu tadbirlar orqali ekologik tizim va tabiiy hayotning holatini nazorat qilish, ekologik muammolarni aniqlash va ularni hal qilishga yo'naltiriladi.

5. Ekologik tizimning yangilanishi: Davlat organlari va jamoat tashkilotlari, ekologik tizimni saqlash maqsadida ekologik tizimning yangilanishiga qaratilgan tadbirlarni o'tishadi. Bu tadbirlar orqali ekologik tizimni yangilash, yangi texnologiyalardan foydalanish va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan yangi usullarni o'rganish va amalga oshirishga harakat qilinadi.

6. Ekologik qo‘mitani tashkil etish: Davlat organlari va jamoat tashkilotlari, ekologik tizimni saqlash maqsadida ekologik qo‘mitani tashkil etishga qaratilgan tadbirlarni o‘tishadi. Bu qo‘mita orqali ekologik muammolarni tuzish, ekologik tizimning saqlashini ta‘minlash, jamiyat a‘zolariga ekologik ta‘lim berish va ko‘rsatish kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, davlat organlari va jamoat tashkilotlari, ekologik tizimni saqlash maqsadida jamiyatning o‘zlashtirish tizimini ta‘minlaydi. Bu tadbirlar orqali jamiyat a‘zolari ekologik muammolarni tushunish, ularni hal qilish va tabiiy muhitni saqlashga qaratilgan tadbirlarni o‘rganishadi.

49-modda: Bu modda “Tabiiy muhitingizning saqlanishi va muhofazasi” mavzusiga bag‘ishlangan. Ushbu modda O‘zbekiston Respublikasi davlatining tabiiy muhiti saqlash maqsadida quyidagi muhim vazifalar tayinlanadi.

62-modda: Bu modda “Guruhga a‘zolik huquqi va uning amaliy tashkiliy tuzilishi” mavzusiga bag‘ishlangan. Ushbu modda O‘zbekiston Respublikasida guruhlariga a‘zolik huquqi berilishi, ularning faoliyatini tashkil etish va boshqarish tartibi aniqlanadi.

68-modda: Bu modda “Milliy iqtisodiyot va moliyaviy tizimning islohoti” mavzusiga bag‘ishlangan. Ushbu modda O‘zbekiston Respublikasining milliy iqtisodiyot va moliyaviy tizimining islohati va ularning rivojlanishini ta‘minlash maqsadida qabul qilingan kelajakdagi qarorlar aniqlanadi.

79-modda: Bu modda “Oliy ta‘lim” mavzusiga bag‘ishlangan. Ushbu modda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimining rivojlanishi va uning talim-tarbiya texnologiyalari, o‘qitish dasturlari va kadrlarini tayyorlashning muhim vazifalari aniqlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston 2021
2. Konstitutsiyaviy huquq darslik. Mualliflar jamoasi. T.: TDYU 2005
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – ta‘lim va taraqqiyotning kafolati. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Farg‘ona-2022.
4. ДАДАШЕВА, А. (2021). Взаимодействие органов представительной власти на местах и самоуправления граждан в осуществлении действенного общественного контроля. Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество, 22(2), 7074.
5. Инагамова, М. М. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯДА ҚОНУН УСТУВОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВА МАҲАЛЛА ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ (ТАҲЛИЛИЙ-СТАТИСТИК МАЪЛУМОТЛАР АСОСИДА). Academic research in educational sciences, 3(10), 315-321.
6. Дадашева, А. А. (2022). ДАВЛАТ ХИЗМАТИНИ ИСЛОҲ ҚИЛИШ ШАРОИТИДА ҲОКИМЛАР ФАОЛИЯТИ УСТИДАН ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 1), 117-122.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

7. Nazarova, N. J. UDK: 711.6 YOSHLARNING KASBIY RAQOVATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA TA „LIMNING O „RNI. ILMIY AXBOROTNOMA, 80.

8. Дадашева, А. А. (2020). МАҲАЛЛИЙ ИЖРО ҲОКИМИЯТИ ФАОЛИЯТИ УСТИДАН ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ НАТИЖАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁЧИМЛАРИ. ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, (SPECIAL 2-2).

9. Nazarova, N. (2021). DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE THE YOUTH AS A FACTOR OF AFFECTING COMPETITIVENESS (on the example of foreign language teaching). Scienceweb academic papers collection.

10. Jumaniyazova, D. (2022). ISSUES OF PERSONAL SPIRITUALITY FORMATION IN UZBEKISTAN. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(07), 43-46.

